

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM USULINING SAMARASI VA BUGUNGI  
KUNDAGI MUAMMOLARI

Ochilova Mohinur Pirnazar qizi

*Qarshi Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada integratsiyalashgan darslar va ularning ta'lim samaradorligidagi o'rni haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Integratsiya, ta'lim, samaradorlik differentsiatsiya*

Integratsiya - (lotin tilidan olingan so'z bo'lib, integratio -tiklash, to'ldirish, integer- butun so'zidan kelib chiqqan). Bu so'z bir necha ma'no'larga ega. Ammo ayni pedagogik ta'limdagi o'rinli fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayonini anglatuvchi tushuncha ma'nosida yoritiladi. Integratsiya so'zi differentsiatsiya so'zi bilan bir o'rinda ham qo'llaniladi. Integratsiya differentsiatsiya bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jarayonlar o'quv fanlari tizimini qurish va talabalar bilimlarini umumlashtirish usullarini izlashda aks etadi. Differentsiatsiya deganda butunni uning tarkibiy elementlariga bo'lish, ajratish tushuniladi. Hozirgi vaqtda integratsiya muammosiga ta'limni tashkil etish jarayonida yana katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy maktabda integratsiya deganda o'quvchilarga yanada samarali va oqilona ta'sir ko'rsatish maqsadida undagi ishlarni yaxshilashga, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan yangi pedagogik yechimlarni faol izlash yo'nalishlaridan biri tushuniladi

Integratsiya - o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbayidir. Ular faoliyatning turli shakllarini almashib turishi orqali o'quvchilar charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

Biz bu masalani ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat?

Integratsiyalashgan ta'limning maqsadi olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim. Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rnini egallashi kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyani ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bolgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish. oxiriga kelib «ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir. Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan

o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha.

Boshlang'ich ta'limda kuni uzaytirilgan guruhlarini to'g'ri tashkil etish muammosi ham g'oyat muhimdir. Ko'pgina maktablarda aksariyat 1-2-sinf o'quvchilari darsdan so'ng 4 yoki 5 soatlab maktabda, kuni uzaytirilgan guruhlarda qolib o'qish lari kerak. Bu bolalarni jismoniy, ruhiy, aqliy jihatdan charchashlariga olib keladi

Ta'lim mazmunini integratsiyalash - integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat - jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqidagi tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim bolalarga darslar jarayonida charchab va zerikib qolmaslikka, mavzuni oson va yengil o'zlashtirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan darslar orqali bolalarga bir mavzu yuzasidan chuqur va yaxlit ta'lim berish mumkin. Masalan o'qish darsida non haqida hikoya o'qisak, tasviriy faoliyatga bog'lab uning rasmini chizdirish, uning tarkibiy elementlari bug'doy-un, suv, achitqi v.h.k. tabiatshunoslik darslariga integratsiyalash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda samarali dars o'tish uchun bugungi kundagi muhim omildir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R. Mavlyanova, N.Raxmankulova “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” Toshkent “Vorish-nashriyot”2013
2. N.Ismatova va boshqalar. “1-2-3-4-sinflar uchun tarbiya fanidan darslik”. Toshkent-2020
3. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ҲАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.
4. Раҳмонов, М. (2021). СЎЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.
5. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
6. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
7. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.

8. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(8), 26-30

9. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.